Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, logistika va ta'minot zanjirini boshqarish yo'nalishida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular logistikani iqtisodiyotning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida baholagan. Logistika murakkab jarayon bo'lib, unda nafaqat yuk va tovarlarni yetkazib berish, balki iste'molchi talabini minimal xarajatlar evaziga maksimal natija bilan qondirish masalalari ham muhim o'rin tutadi.

Donald J. Bowersox — zamonaviy logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U logistika tushunchasini oddiy transport yoki yuk tashish jarayoni sifatida emas, balki korxonalar strategiyasining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, logistika — bu mahsulot, xizmat va ular bilan bog'liq axborot oqimlarini kelib chiqish nuqtasidan boshlab yakuniy iste'molchigacha samarali, tejamkor va tizimli boshqarish jarayonidir. Shuningdek, u logistikaning asosiy maqsadi faqat foyda olish emas, balki iste'molchi uchun qiymat yaratishdan iborat ekanini ta'kidlaydi.

Martin Christopher — Buyuk Britaniyadagi Krenfeld menejment maktabining marketing va logistika bo'yicha faxriy professori hisoblanadi. U ko'p yillar davomida logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida yetakchi ilmiy maktablardan birini shakllantirgan. Uning ilmiy ishlari xarajatlarga yo'naltirilgan logistika modelidan qiymatga yo'naltirilgan, mijozga qaratilgan ta'minot zanjiri modeliga o'tishni asoslaydi. Shuningdek, u marketing va logistika funksiyalarini integratsiyalashgan holda boshqarish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

David Simchi-Levi — Massachusetts Institute of Technologyda uzoq yillar faoliyat yuritgan yetakchi olimlardan biri bo'lib, ta'minot zanjiri dizayni va risklarni boshqarish sohasiga katta hissa qo'shgan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa, ta'minot zanjiri barqarorligini miqdoriy baholashga qaratilgan analitik modellarni ishlab chiqish bilan ajralib turadi. 2023-yildan boshlab u Purdue University tarkibidagi Mitch Daniels biznes maktabida ilmiy faoliyatini davom ettirib, qaror qabul qilishda ma'lumotlar fanining ahamiyatini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Nodir Boboyev logistika va ulgurji savdo sohaslarida faoliyat yuritayotgan o'zbekistonlik tadbirkorlardan biri hisoblanadi. Uning faoliyati O'zbekistonning hududlarida logistika infratuzilmasining rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Xususan, uning korxonasi kichik va o'rta logistika firmalarining hududiy bozorlarda faoliyatini kengaytirish, ichki taqsimot tizimlarini mustahkamlash hamda iqtisodiy faollikni hududlar kesimida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, logistika sohasining hozirgi darajada rivojlanishi va tarmoqlashib borishida turli olimlarning hissasi beqiyosdir. Ularning ilmiy qarashlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish har bir davlat va korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ham aynan ushbu yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda guruhlash usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, logistika xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2024–2025-yillar kesimida taqqoslab tahlil qilindi.

Bundan tashqari, ombor xarajatlarini kamaytirish hamda JIT (just-in-time) tizimidan foydalanish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, ikkita yirik sanoatlashgan hudud tanlab olinib, ularda logistika samaradorligi darajasi qiyosiy jihatdan baholandi.

Tajriba sifatida yirik xorijiy kompaniya tanlanib, uning iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan YaIM bilan bog'liqligi tahlil qilindi hamda statistik usullar asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'rganilgan manbalar va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transport-logistika tizimlarida xarajatlarning yuqori bo'lishi, asosan, rejalashtirish jarayonidagi kamchiliklar, transport vositalaridan foydalanish darajasining pastligi hamda logistika jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq. Tahlil natijalariga ko'ra, noto'g'ri tanlangan marshrutlar va yuklarning to'liq yuklanmasligi transport xarajatlarining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy misollar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport marshrutlarini optimallashtirish orqali yoqilg'i sarfini kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish mumkin. Shuningdek, yuklarni konsolidatsiya qilish orqali transport vositalaridan foydalanish samaradorligi oshadi hamda bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan logistika xarajatlari kamayadi. Multimodal transportdan foydalanish uzoq masofali tashuvlarda transport xarajatlarini pasaytirish va logistika jarayonlarining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Transport-logistika xarajatlari yuklarni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazib berish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlarni yig'indisidan iborat. Ushbu xarajatlarni tarkibiga yoqilg'i va energiya sarfi, transport



vositalarini saqlash va ta'mirlash, ishchi kuchi, sug'urta hamda tashkiliy-boshqaruv xarajatlari kiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur xarajatlarning asosiy qismi transport jarayoniga to'g'ri keladi. Transport turi qanchalik to'g'ri tanlansa, xarajatlar shunchalik optimal darajada, ya'ni minimal miqdorda bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Logistika zanjiri²

O'zbekiston sharoitida transport vositalarining texnik holati, yo'llarning sifati hamda logistika infratuzilmasining hududlar bo'yicha notekis rivojlanganligi xarajatlar oshishiga ta'sir ko'rsata². Bundan tashqari, yuklarning to'liq yuklanmasligi, bo'sh qaytish holatlari va rejalashtirishdagi kamchiliklar logistika samaradorligini pasaytiradi³. Shu sababli transport-logistika xarajatlarini faqat hisob-kitob obyekti sifatida emas, balki boshqaruv muammosi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Navoiy hududi logistika salohiyati yuqori bo'lgan yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Shu bois, Shavkat Mirziyoyev tomonidan Navoiy xalqaro aeroportini rivojlantirishni jadallashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilingan. Jumladan, samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish va unga bog'liq xizmatlarni rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy hamda bojxona zonalarini tashkil etish rejalashtirilgan⁴. Ushbu tashabbuslar Navoiy hududini mintaqaviy aviatsiya va logistika markaziga aylantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyaning muhim qismi hisoblanadi.

Navoiy viloyatida katta hajmdagi tabiiy gaz va qimmatbaho metallar konlari, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun boy xomashyo zaxiralari mavjud. Hududda dunyodagi eng sof oltinlardan birini qazib oluvchi Navoiy va Zarafshon kon-metallurgiya kombinatlari faoliyat yuritadi. "Navoiyazot" korxonasi esa mamlakatdagi yirik mineral o'g'it ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu tabiiy resurslar logistika infratuzilmasining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Hududda temir yo'l tarmoqlari rivojlangan bo'lib, sanoat yuklari asosan temir yo'l orqali tashiladi. Bundan tashqari, avtomobil yo'llari orqali ham yuk tashish amalga oshiriladi, havo transporti esa Navoiy xalqaro aeroporti orqali ta'minlanadi. Umuman olganda, konchilik va sanoat ishlab chiqarish logistika tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Toshkent shahri ham logistika sohasida jadal rivojlanib, muhim markazga aylanmoqda. O'zbekistonning transport xizmatlari bozori tez sur'atlar bilan o'smoqda: 2025-yil holatiga ko'ra umumiy hajmi 70,7 trln so'mga yetgan bo'lib, yillik o'sish sur'ati 14 % dan yuqori. Toshkent ushbu bozorda eng katta ulushga ega. Mamlakat transport tarmoqlari orqali Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo yo'nalishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, logistika koridorlari kengaytirilmoqda.

DP World kompaniyasi Tashkent yaqinida multimodal logistika terminalini rivojlantirish uchun 288 million

2 Ergashev, Jahongir Baxodirovich. Logistik operatsiyalar va funksiyalarga qilinadigan xarajatlar. // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). – SJIF Factor: 5.57.

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti ma'lumotlari asosida.

4 Muallif ishlanmasi.

AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritishini e'lon qilgan⁵. Ushbu loyiha Toshkent Invest bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yetkazib berish tezligini oshirish va logistika xavfsizligini ta'minlash maqsadida yirik elektron savdo kompaniyalari tomonidan Toshkentda logistika markazlari tashkil etilmoqda. Bu esa ichki ta'minot tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Toshkent logistika sohasida hali global darajadagi markaz darajasiga yetmagan bo'lsa-da, u O'zbekistonning eng yirik transport-logistika markaziga aylangan va sezilarli sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, yangi multimodal terminal hamda yirik investitsiyalar uni Markaziy Osiyoda mintaqaviy logistika markaziga aylantirishga yo'naltirilgan. Bu esa moliyaviy infratuzilma, transport tarmoqlari va savdo oqimlarini yaxshilash orqali samaradorlikni oshiradi.

Shundan xulosa qilib aytganda, har ikkala markaz logistika tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, bu mamlakatning logistika xizmatlari sohasida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Logistikada samaradorlikni oshirish uchun axborot tizimlarini qo'llash, ishchi kuchi xarajatlarini kamaytirish, omborxonada faoliyatini takomillashtirish hamda transport xarajatlarini optimallashtirish eng samarali yo'nalishlar hisoblanadi [4]. Logistika axborot tizimlarining sifatini oshirish mahsulotlarni zaxiralash, jo'natish, omborga joylashtirish hamda pul oqimlarini boshqarish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ortiqcha xarajatlarning oldini olish imkonini beradi.

Ishchi kuchi xarajatlarini kamaytirish maqsadida AGV robotlarini, ya'ni avtomatlashtirilgan boshqariladigan transport vositalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. AGV — bu ombor, zavod yoki boshqa ishlab chiqarish obyektlari bo'ylab avtonom harakatlanishga mo'ljallangan mobil robot turidir. Ular datchiklar va boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan bo'lib, oldindan belgilangan yo'nalish bo'yicha harakatlanadi hamda to'siqlardan qochish imkoniyatiga ega. So'nggi yillarda texnologik rivojlanish natijasida AGV tizimlari yanada ishonchli va tejamkor yechimga aylanmoqda⁶.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, BMW zavodlarida AGV robotlari kuniga minglab detallarni avtomatik tarzda tashish orqali inson mehnatini taxminan 35 % ga kamaytirgan. Ushbu texnologiyani O'zbekistonning logistika va ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish ishchi kuchi xarajatlarini qisqartirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Yana bir samarali usul — just-in-time (JIT) metodidir. Ushbu metodning asosiy mazmuni shundan iboratki, korxonada xom ashyo va materiallarni omborda uzoq muddat saqlab turish o'rniga, aynan ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan vaqtda qabul qiladi. Bu yondashuv ombor xarajatlarini kamaytiradi, ortiqcha zaxiralarni bartaraf etadi hamda ishlab chiqarish jarayonining moslashuvchanligini oshiradi. Masalan, Toyota kompaniyasi ishlab chiqarish tizimida JIT metodini birinchilardan bo'lib joriy etgan bo'lib, natijada zaxira xarajatlarini 60–70 % gacha qisqartirishga erishgan. JIT orqali materiallar oqimi uzluksiz, aniq va muvofiqlashtirilgan ritmda harakat qiladi. Ushbu metodni qo'llash ombor xarajatlarini qisqartirish va logistika tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval
JIT tizimidan foydalanish darajasi (% hisobida, yillar kesimida)

Hudud / Davlat	2020	2021	2022	2023	2024
Rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya)	55 %	58 %	60 %	63 %	65 %
Osiyo (Xitoy, Janubiy Koreya)	40 %	43 %	47 %	50 %	54 %
MDH davlatlari (Rossiya, Qozog'iston)	20 %	22 %	25 %	28 %	32 %
O'zbekiston	8 %	10 %	12 %	15 %	18 %

Jahon amaliyotida JIT logistika tizimidan foydalanish darajasi 60 % dan oshgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich 20–30 % ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa ushbu tizimdan foydalanish darajasi hali 15–18 % atrofida bo'lib, bu logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Transport-logistika xarajatlarini kamaytirishda, avvalo, marshrutlarni to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, oldindan puxta rejalashtirilgan marshrutlar yoqilg'i sarfini kamaytirish va yetkazib berish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ushbu jarayonni yanada samarali qiladi.

Shuningdek, yuklarni konsolidatsiya qilish orqali transport vositalaridan foydalanish darajasini oshirish mumkin. Jahon miqyosida yetkazib berish jarayonlari jadallashib bormoqda, ya'ni Amazon, Walmart, AliExpress kabi kompaniyalar global miqyosda keng tarmoqli logistika va taqsimot markazlarini shakllantirgan. Bu esa

5 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2022–2024-yillar.


6 Grant, D. B., Trautrim, A., & Wong, C. Y. Sustainable Logistics and Supply Chain Management. – Kogan Page, 2022.



xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda⁷.

Multimodal transport tizimlaridan foydalanish uzoq masofali tashuvlarda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. O'zbekistonning geografik joylashuvi bu borada katta imkoniyatlar yaratadi, chunki mamlakat muhim xalqaro transport yo'laklari kesishgan hududda joylashgan.


2025-yilda transport-logistika tizimlariga qo'yilayotgan talablar avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Hozirgi kunda logistika faqat yuk tashish jarayoni emas, balki butun ta'minot zanjirini samarali boshqarishni anglatadi. 2025-yilda transport-logistika xizmatlari YaIMning taxminan 5,6–5,7 % ini tashkil etgan bo'lib, bu mazkur sohaning milliy iqtisodiyotdagi muhim ulushga ega ekanini ko'rsatadi [6].



3-rasm. YaIMning 2021–2025-yillar kesimida foizda o'sishi

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, logistika va xizmat ko'rsatish sohasi 2021-yilda sezilarli darajada o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Biroq ushbu ko'rsatkich 2022-yilda pasayib, 3,9 % ga kamaygan va 104,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021–2025-yillar oralig'ida ko'rsatkichlarning yildan yilga o'zgarib borishi, ya'ni o'sish va pasayish tendensiyalari kuzatilgan. Ushbu davr mobaynida eng yuqori o'sish 2025-yilda qayd etilib, 107,2 % ni tashkil qilgan⁸ (4-rasm).



4-rasm. 2021–2025-yillarda YaIM hajmi (trln so'mda)

7 Amazon. (2023). Fulfillment Center Design and Innovation Overview. – Retrieved from: <https://www.aboutamazon.com>

8 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, YaIM hajmi muntazam ravishda ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining barqarorligini anglatadi. Xususan, 2021–2025-yillar davomida YaIM hajmining sezilarli darajada o'sgani kuzatiladi, ya'ni ko'rsatkich qariyb 2,5 barobar oshgan.

O'zbekistonda 2025-yilga mo'ljallangan rivojlanish rejalarida logistika markazlarini kengaytirish, zamonaviy ombor infratuzilmasini yaratish hamda transport xizmatlari sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shuningdek, logistika sohasida kadrlar tayyorlash va boshqaruv madaniyatini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Malakali mutaxassislar mavjud bo'lmaguncha, eng zamonaviy texnologiyalar ham kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Mazkur tadqiqotda transport-logistika tizimlarida xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish masalalarini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullaridan birgalikda foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, mantiqiy tahlil hamda taqqoslash metodlari orqali transport-logistika xarajatlarining mohiyati va ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Shuningdek, statistik tahlil usuli yordamida transport-logistika jarayonlarida yuzaga keladigan asosiy xarajat turlari umumlashtirildi va ularning samaradorlikka ta'siri baholandi. Tadqiqot davomida amaliy misollar asosida marshrutlarni optimallashtirish, yuklarni konsolidatsiya qilish hamda multimodal transportdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Mahalliy ilmiy manbalarda O'zbekiston sharoitida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, logistika markazlarini tashkil etish hamda xalqaro transport yo'laklaridan samarali foydalanish masalalari keng yoritilgan. 2025-yilga mo'ljallangan rivojlanish dasturlarida transport-logistika sohasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xarajatlarni qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu tadqiqot mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirib, ularni O'zbekiston sharoitiga mos holda tahlil qilishga qaratilgan.

Logistika samaradorligi mahsulot tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, korxonada 1 tonna xom ashyo import qilganda logistika tizimi yetarli darajada optimallashtirilmagan bo'lsa, yoqilg'i va bojxona xarajatlari yuqori bo'lishi mumkin. Biroq marshrutlarni optimallashtirish, konteynerlarni to'liq yuklash hamda multimodal transportdan foydalanish orqali umumiy transport xarajatlarini 10–20 % gacha kamaytirish mumkin. Bu esa mahsulot tannarxini pasaytiradi va uning raqobatbardoshligini oshiradi.

Logistika tizimi samarali tashkil etilganda, mahsulot ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha tez yetib boradi, sifat saqlanadi va xarajatlar kamayadi. Aksincha, yetkazib berish jarayoni yetarli darajada rejalashtirilmagan bo'lsa, kechikishlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa buyurtmalarni yo'qotish xavfini oshiradi. Samarali logistika tizimi esa yetkazib berish muddatlarini qisqartirib, korxonaning bozorga tez kirishini hamda savdo hajmining oshishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston bozorida xalqaro va qo'shma korxonalar faol bo'lsa-da, milliy logistika brendlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

- milliy operatorlarning yetishmasligi logistika xizmatlarida tashqi kompaniyalarga bog'liqlikni oshiradi;
- natijada xizmatlar narxi oshishi yoki uzluksizlik darajasi pasayishi ehtimoli mavjud;
- shu bois milliy logistika brendlarni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

2-jadval

Transport-logistika tizimlarida samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar

Taklif yo'nalishi	Amaliy misol	Kutilayotgan natija
Marshrutlarni optimallashtirish	Hududlararo tashuvlarda eng qisqa va tejamkor yo'nalishlarni tanlash	Yoqilg'i sarfi va yetkazib berish vaqti qisqaradi
Yuklarni konsolidatsiya qilish	Bir nechta kichik yuklarni bitta transport vositasida tashish	Transport vositalaridan foydalanish samaradorligi oshadi
Multimodal transport	Avtomobil va temir yo'l transportini birlashtirish	Uzoq masofali tashuvlarda xarajatlar kamayadi
Raqamli boshqaruv tizimlari	Yuklarni real vaqt rejimida monitoring qilish	Kechikishlar kamayadi va boshqaruv samaradorligi oshadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transport-logistika tizimlarida xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish masalasi nafaqat texnik, balki boshqaruv va tashkiliy yondashuvlarni ham talab etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, transport xarajatlarining yuqori darajada shakllanishi, asosan, marshrutlarni rejalashtirishdagi kamchiliklar, yuklarning to'liq yuklanmasligi hamda logistika jarayonlarida muvofiqlashtirishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, olib borilgan amaliy tahlillar O'zbekistonning transport-logistika sohasini rivojlantirish bo'yicha yuqori salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi, xususan, xalqaro yuk tashish hajmi 2025-yilda 63,7 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2030-



yilga borib ushbu ko'rsatkichni 119,2 mln tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa sohada zamonaviy, shaffof va samarali boshqaruv metodlarini keng joriy etish zarurligini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga asoslanib, transport-logistika tizimlarining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim yo'nalishlar taklif etiladi. Jumladan, yuklarni konsolidatsiya qilish orqali bir nechta kichik hajmdagi yuklarni bitta transport vositasida tashish yoqilg'i va mehnat xarajatlarini kamaytirish hamda transport vositalaridan foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi. Logistik yo'laklarni kengaytirish va chegara infratuzilmasini takomillashtirish yuklarni yetkazib berish tezligini oshirishga xizmat qiladi, ayniqsa, Yevropa yo'nalishlarida tashish jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, logistika infratuzilmasini hududlar kesimida rivojlantirish, ya'ni nafaqat Toshkent shahrida, balki boshqa viloyatlarda ham logistika markazlari, omborlar va transport tugunlarini barpo etish umumiy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida sun'iy intellekt texnologiyalarini logistika tizimlariga joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt yordamida yuk oqimlarini prognozlash, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni oldindan aniqlash, transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida kuzatish hamda eng optimal marshrutlarni tanlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa yoqilg'i sarfini kamaytirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va umumiy logistika xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, logistika xarajatlarini kamaytirish faqat infratuzilmani rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki raqamlashtirish, just-in-time (JIT) tizimini joriy etish hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Ushbu chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda logistika tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va global raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ–28-sonli "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7342148>
2. Massachusetts Institute of Technology. Statistics and Data Science Center. – Cambridge, MA, USA.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2022–2024-yillar.
4. Boboyev, N. Logistika: o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2021. – 330 b. – ISBN: 978-9943-7641-5-6.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yil 28-iyuldagi rasmiy press-reviz.
6. Amazon. (2023). *Fulfillment Center Design and Innovation Overview*. – URL: <https://www.aboutamazon.com>
7. Ergashev, J. B. Logistik operatsiyalar va funksiyalarga qilinadigan xarajatlar. // *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*. – SJIF Factor: 5.57.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100